

## MATEMATIKA DARSLARIDA TAFAKKUR USLUBLARI VA SHAKLLARI

Abduhalimova Zulhumor  
Andijin viloyati Shahrixon tumani  
44-IDUM Matematika oqituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Matematikaning hayotimizda tutgan beqiyos ekanligi haqida, Matematika darsi o'quvchilar kuchi yetadigan darajada o'quv materiallarini umumlashtirishni, o'rganilayotgan matematik faktlar asosida yotuvchi umumiyl prinsip va qonuniyatlarini tushuntirishi haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** matematika, dars, o'quvchi, o`qituvchi, qonuniyat, tushuntirish, rivojlanish, taraqqiyot, imkoniyat.

Yangi asr informatsion texnologiyalarning shiddatli va katta masshtabli rivojlanishi bilan boshlandi. Bu borada yetuk mutaxasislar va ayniqsa yangi boshlovchi-tadqiqotchilar va axborot texnologiyalarini o'rganuvchilar ham uning taraqqiyotiga va imkoniyatlariga yetib olish mushkul ekanligini xis etmoqdalar. Axborot texnologiyalari texnik imkoniyatlari, intellektual salohiyati va texnologik ko'p qirraligi bilan lokal rivojlanishda jahon fani taraqqiyotiga katta xissa qo'shib kelmoqda. Lokal, ya'ni alohida davlatlar va ilmiy markazlarda raqobatli rivojlanishi, keng ma'nodagi taraqqiy etishi, o'sha davlatning yoki markazning tom ma'nodagi gegemonligiga olib kelmoqda. Bunday taraqqiyot har bir davlat va hatto har bir mutaxasisdan doimo izlanishda bo'lishga va shu taraqqiyot-o'sish poygasida o'z o'rnni topa bilishini taqazo etmoqda. Bunday raqobatni axborot texnologiyalarining barcha sohalarida kuzatilmogda. Kompyuter texnikasi va uning imkoniyatlarini, tezligini, xotirasini va mobilligini doimo takomillashtirish borasida rivojlangan davlatlarning shu soha mutaxasislari to'xtovsiz ish olib borib, kutilmagan natijalarga-yutuqlarga ham erishmoqdalar. Ikkinchini tomondan dasturlash muammolarini hal etish va bu sohaning cheksiz katta imkoniyatlari ham yanada chuqurroq o'rganilib, informatsion bozorda nihoyatda samarali yangi biznesning rivojlanishiga ham olib keldi.

Tafakkur - inson ongida ask etgan ob'yektlar tomonlar va xossalari ajratish va ularni yangi bilim olish uchun boshqa ob'yektlar bilan tegishli munosabatlarda qo'yish jarayoniga aytiladi. Umuman olganda, tafakkur ob'yektiv borliqning inson ongida faol aks ettirish jarayonidir.

Tafakkur ham mazmun va shaklga ega. Alohida fikrlar tuzilmasi va ularni maxsus birlashmalariga tafakkurning shakllari deyiladi. Tafakkurning shakllari quyidagilar: tushuncha, hukm va tasdiqlar. Uning haqiqatliligi - ularni to'gri o'rganish, mustahkam va ishonchli sistemani ta'minlaydi.

Tushunchalar ob'yektlaming turli xil sifatlari, belgilari va xususiyatlarini aks ettiradi, bunda birlik va umumiyl xossalari mavjud. Birlik xossalari faqat shu ob'yektga tegishli bo'lib, uni boshqalaridan farqlovchi belgilarini o'z ichiga oladi, umumiyl xossalari -

ob'yeqtlargalari tegishli muhim xossalarni ifodalash uchun tushunchani boshqa tushunchalardan farqli belgilari va umumiyligini ta'minlash uchun qo'llaniladi.

Tushunchaning xususiyatlari: moddiy dunyoni aks ettiruvchi kategoriya hisoblanadi; bilishda umumlashgan narsa sifatida paydo bo'ladi; tushuncha o'ziga xos inson faoliyatini bildiradi; inson ongida tushuncha shakllanib, u nutqda, yozuvda va belgilarda ifodalanishi bilan xarakterlanadi.

Matematikaning hayotimizda tutgan beqiyos o'rni inobatga olingan holda mazkur fan birinchi sinfdanoq maktab darsliklariga kiritilgan bo'lib, yurtimizda barcha aniq fanlar qatori matematika ta'limini zamon talablari asosida takomillashtirib borish, uni o'qitishda eng so'nggi pedagogik va innovatsion usullar, multimedia vositalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Innovatsion texnologiyalarni amaliy mashg'ulot darslarida qo'llash ham o'qituvchidan katta mahorat va bilim talab qiladi. Innovatsion texnologiya o'z o'rnida qo'llansa qo'yilgan maqsadiga erishiladi. O'qituvchi dars davomida darsning mavzusiga qarab xususiy texnologiyalarni qo'llab ham yuqori natijalarga erishsa bo'ladi.

Matematika darsi o'quvchilar kuchi yetadigan darajada o'quv materiallarini umumlashtirishni, o'rganilayotgan matematik faktlar asosida yotuvchi umumiyligini va qonuniyatlarni tushuntirishni, qarab chiqilayotgan hodisalar orasida mavjud bo'lgan bog'lanishlarni tushuntirishni nazarda tutadi. Bu asosan amallarning xossalarni, ular asosidagi mavjud bog'lanishlarni o'rganishga, bolalarda shakllanayotgan amaliy o'quv va ko'nikmalarning asosi bo'lgan matematik munosabatlar va bog'lanishlarga taaluqlidir.

O'quvchilarda egallangan bilim, o'quv va malakalarni turli hil shartlarda qo'llanishga o'rgatishni o'quvchilarning maxsus masalasi sifatida qarash mumkin.

Shu bilan birga bilimlarni qo'llanish ham bolalarning o'quv ishlari samaradorligi oshirishning muhim vositalaridan biridir. Bilim, o'quv malakalarning to'la qiymatli o'zlashtirilishiga ularning o'zgaruvchili sharoitlarda mustaqil qo'llanishi natijasidagina erishish mumkinligini psixologlar isbotlashdi. Bolalarning maktabda boshlang'ich sinflardan keyingi sinfga o'tishida albatta vujudga keladigan ko'p darajada aynan ana shu asosida bartaraf etishi mumkin va aksincha, agar o'qituvchi har tomonlama bilimlarga maxsus e'tibor bermasa va bolalarni bir hil turdag'i savollarga, topshiriqlarga ifodalarga, masalalarga o'rgatib qo'ysa bu 5 – sinfda fanlar bo'yicha o'qitishga o'tishdagi murakkablikni yanada oshiradi. Bu masala bolalar bilim qobiliyatlarni o'stirishning ancha umumiyligini bilan uzviy bog'langan. Boshlang'ich sinfdanoq kuzatish va taqqoslash, solishtirilayotgan hodisalardagi o'xshashlik va farq qilayotgan belgilarni ajaratish, tahlil, sintez va umumlashtirish, abstarksiyalash, aniqlashtirish kabi amallarni bajarish uchun ko'p ish qilingan bo'lishi kerak. O'quvchilar matematik fikrlash qobiliyatini shakllantirish masalasi bilan ularda to'g'ri, aniq, qisqa matematik nutqni o'stirish masalasi uzviy ravishda bog'langandir.

Matematika o'qitishning asosiy vazifalardan biri o'quvchilarga hisoblash, o'lchash va grafik ko'nikmalarning ma'lum aniq sistemasini hosil qilishdan iborat, boshqacha aytganda bu sistema eng sodda amallarni bajarishdan iborat bo'lib, ko'p marta takrorlash hisobiga avtomatizmaga yetkazildi. Bu vazifani yetarlicha baholamaslik amalda bolalar bilimlari

sifatining pasayishiga olib keladi. Shunga qaramay hozirgi vaqtida boshlang'ich matematika kursini o'rganishni faqatgina ko'nikmalar hosil qilish va bir xildagi faktlarni o'zlashtirish bilan almashtirish ham mumkin emas.

O'quvchilar imkonи boricha mustaqil ravishda qonuniyat va munosabatlarni ochishda kuchlari yetadigan darajada umumlashtirishlar qilishni o'rganishlari, shuningdek, og'zaki va yozma xulosalar qilishni o'rganishlari kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

- 1.Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi (OO`Y uchun darslik) Toshkent. . “Turon-Iqbol” 2016 yil .
- 2.Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G` Boshlang`ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (OO`Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil.
3. Jumayev M.E, Boshlang`ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O O`Y uchun ) Toshkent. “O`qituvchi” 2004 yil.